

INGLIZ TILI DARSLARIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH YO‘LLARI

Ashurova Hafiza
Qarshi shahar 23-maktab
ingliz tili fani o‘qituvchisi

WAYS TO INCREASE MOTIVATION IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Ashurova Hafiza
Teacher of English Language
School №23, Karshi City

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Unda interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, rag‘batlantirish va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali dars samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola o‘qituvchilarga dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishda amaliy tavsiyalar beradi.

ABSTRACT

This article analyzes effective ways to increase students’ motivation in English language lessons. It highlights the importance of using interactive methods, modern pedagogical approaches, and technology in the teaching process. Additionally, the article discusses considering students’ individual characteristics, providing encouragement, and using real-life tasks to enhance lesson effectiveness. The paper offers practical recommendations for teachers to make their lessons more engaging and productive.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, ingliz tili, dars jarayoni, interaktiv metodlar, kommunikativ yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik yondashuv, o‘quvchi faolligi, ta’lim samaradorligi, innovatsion usullar

Keywords: motivation, English language, lesson process, interactive methods, communicative approach, modern technologies, pedagogical approach, student activity, educational effectiveness, innovative methods

KIRISH

Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganish global miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro muloqot, ta’lim va kasbiy rivojlanishda ushbu tilning o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu sababli, uni samarali o‘qitish hamda o‘quvchilarning darsga

bo'lgan qiziqishini oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasiga, ayniqsa xorijiy tillarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan islohotlarda yoshlarning xorijiy tillarni mukammal egallashi muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, qabul qilingan qaror va farmonlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Motivatsiya ta'lim jarayonining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va faolligini belgilaydi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, yangi bilimlarni tezroq o'zlashtiradi va mustaqil izlanishga intiladi. Shu bois ingliz tili darslarida motivatsiyani oshirishning samarali yo'llarini aniqlash va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari, zamonaviy metodlar asosida tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

ASOSIY QISM

Ingliz tili darslarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, yangi bilimlarni tezroq o'zlashtiradi va tilni amaliy muloqotda qo'llashga intiladi. Shu sababli o'qituvchi zamonaviy pedagogik metodlar va yondashuvlardan samarali foydalanishi lozim. Motivatsiya o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va u bir nechta turlarga bo'linadi. Ichki motivatsiya o'quvchining shaxsiy qiziqishi, bilim olishga intilishi va o'zini rivojlantirish istagidan kelib chiqadi. Bu motivatsiya turi eng barqaror bo'lib, uzoq muddatli natija beradi. Tashqi motivatsiya esa mukofot olish, yaxshi baho yoki jazodan qochish kabi omillarga asoslanadi. U qisqa muddatda samarali bo'lsa-da, barqaror emas. Amaliy (samarali) motivatsiya esa o'quvchining real hayotiy ehtiyojlari, masalan kelajakdagi kasb, o'qish yoki ish faoliyati uchun tilni o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Ushbu motivatsiya turlari dars jarayonida birgalikda qo'llanganda o'quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Guruhda ishlash, juftlikda suhbatlashish, bahs-munozaralar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv orqali o'quvchilar tilni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda ham o'zlashtiradilar.

O'yin texnologiyalari ham motivatsiyani oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Turli viktorinalar, rolli o'yinlar va lingvistik mashqlar o'quvchilarda darsga qiziqishni kuchaytiradi hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan multimedia vositalari, video va audio materiallar hamda onlayn platformalar darslarni yanada jonli va tushunarli qiladi. Bu esa o'quvchilarning tinglab tushunish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Har bir o'quvchining bilim darajasi va qiziqishi turlicha bo'lgani uchun differensial yondashuv asosida topshiriqlar berish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Rag'batlantirish tizimi ham motivatsiyani kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchining og'zaki maqtovi, stikerlar, maqtov kartochkalari, o'quv qurollari hamda "Faxriy burchak" kabi usullar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol bo'lishga undaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot Qarshi shahar 23-maktabning 3-sinf o'quvchilari bilan ingliz tili darslari jarayonida olib borildi. Dastlabki kuzatuvlarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi o'rtacha darajada bo'lib, faollik asosan 30–40% atrofida edi. Darsda faqat ayrim o'quvchilar savollarga javob berar, qolgan qismi esa passiv kuzatuvchi sifatida ishtirok etardi. Bu holat ayniqsa yangi mavzuni o'zlashtirish va og'zaki nutq mashqlarida yaqqol sezildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks tizim joriy etildi. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilar stikerlar, maqtov kartochkalari, shuningdek o'quv qurollari (daftar, ruchka, rangli qalamlar) bilan taqdirlandi. Ayrim hollarda kichik shirinliklar ham qo'llanildi. Bundan tashqari, eng a'lochi o'quvchining rasmi sinf doskasi yoki "Faxriy burchak"ga joylashtirildi. Bu usul o'quvchilarda ijobiy emotsional holat va sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, rag'batlantirish tizimi o'quvchilarning darsga munosabatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Birinchidan, o'quvchilarda darsga qiziqish ortdi va ular faol ishtirok etishga intila boshladi. Ikkinchidan, ilgari sust ishtirok etgan o'quvchilar ham rag'bat olish maqsadida savollarga javob berish, topshiriqlarni bajarish va yodlash jarayonida faollashdi.

Shuningdek, rag'batlantirishning faqat natijaga emas, balki jarayonga ham qaratilgani muhim omil bo'ldi. Ya'ni o'quvchilar faqat to'g'ri javob bergani uchun emas, balki harakat qilgani, intilgani, avvalgi holatiga nisbatan rivojlangani uchun ham

rag'batlantiriladi.



1-rasm. Dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki

Tahlil jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'rinadigan va tez natija beradigan rag'batlar (stiker, doskaga rasm qo'yish) juda kuchli motivatsiya vositasi hisoblanadi. Moddiy rag'batlar (o'quv qurollari, shirinliklar) esa qisqa muddatli qiziqishni oshirsa-da, ma'naviy rag'bat (maqtov, e'tirof, "Faxriy burchak") uzoq muddatli motivatsiyani shakllantiradi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, kompleks rag'batlantirish tizimi o'quvchilarning faolligini 70–80% gacha oshirdi. Darslarda interaktivlik kuchaydi, o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda eta boshladi va ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortdi.

TAKLIF VA XULOSALAR

Tadqiqot natijalari asosida ingliz tili darslarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar beriladi:

1. Dars jarayonida interaktiv va kommunikativ metodlardan muntazam foydalanish, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish.
2. O'yin texnologiyalari (viktorina, rolli o'yinlar, lingvistik mashqlar)ni keng qo'llash orqali darsni qiziqarli tashkil etish.
3. Multimedia vositalari, video va audio materiallar hamda zamonaviy raqamli platformalardan samarali foydalanish.
4. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, differensial yondashuv asosida topshiriqlar berish.

5. Rag'batlantirish tizimini kuchaytirish: stikerlar, maqto'v kartochkalari, o'quv qurollari hamda "Faxriy burchak" kabi usullardan foydalanish.
6. O'quvchilarning yutuqlarini nafaqat individual, balki sinf va ota-onalar bilan ham baham

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Qarshi shahar 23-maktab 2-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik metodlar va rag'batlantirish tizimining uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning faolligini 70–80% gacha oshirdi.

Shu bois, o'qituvchilar dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishi, o'quvchini markazga qo'ygan ta'lim muhitini yaratishi muhim hisoblanadi. Bu esa nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhmedova, N. (2017). Ta'limda motivatsiyaning o'rni va uning o'quvchilarga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Turabova, O. (2024). *Ingliz tilini o'rganishda motivatsiyaning roli*. Ko'p tillilik muhitida xorijiy tillarni rivojlantirishning innovatsion va integrativ muammolari. 2-sho'ba: Filologik va nofilologik yo'nalishlarda tillarni o'qitishning integrativ yondashuvlari: ilg'or tajribalar, 456–460.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11378305>
3. Abduxoshimova, D. S. O'quvchilarda ingliz tilini o'rgatish motivatsiyasini oshirish metodikalari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar: ilmiy va ilmiy-texnik onlayn konferensiya materiallari*. 5–7 bet.
4. Sattorov, X. R. Ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari. *Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi*, SJIF: 5.141, 14–16-betlar.